PEDAGOGIKA

UDK: 37.018:378:796.5:004 **DOI: 10.56292/SJFSU/vol29_iss5/a4**

BO‘LAJAK JISMONIY TARBIYA FANI O‘QITUVCHILARINING SPORT TURIZMIGA DOIR BILIMLARINI RIVOJLANTIRISHNING TEXNOLOGIK ASOSLARI

ТЕХНОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ ЗНАНИЙ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ФИЗКУЛЬТУРЫ О СПОРТИВНОМ ТУРИЗМЕ

TECHNOLOGICAL BASIS OF DEVELOPING THE KNOWLEDGE OF FUTURE PHYSICAL EDUCATION TEACHERS ABOUT SPORTS TOURISM

[1]G‘ofurov Azizbek Umarjonovich

[1]Farg‘ona davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya

Mazkur maqolada bo‘lajak jismoniy tarbiya fani o‘qituvchilarining sport turizmiga doir bilimlarini rivojlantirish samaradorligiga qaratilgan pedagogik jarayonning mazmuni, jamiyadagi turli islohotlarni rivojlantirish to‘g‘risidagi fikr-mulohazalar bayon qilingan.

Аннотация

В данной статье описаны содержание педагогического процесса, ориентированного на эффективность формирования знаний о спортивном туризме у будущих учителей физической культуры, взгляды на разработку различных реформ в обществе.

Abstract

This article describes the peculiarities of training future physical education teachers for sports tourism, opinions on the development of various reforms in society.

Kalit so‘zlar: *ijtimoiy-iqtisodiy, mustaqil ta’lim, zamonaviy dunyoqarash, ijtimoiy zarurat, uzluksiz ta’lim, jismoniy tarbiya o‘qituvchilari, innovasion va raqamli, ta’lim standartlari, Ta’lim va tarbiya, ilmiy-metodik.*

Ключевые слова: *социально-экономическое, самостоятельное образование, современное мировоззрение, социальная необходимость, непрерывное образование, учителя физической культуры, инновационные и цифровые, образовательные стандарты, образование и обучение, научно-методические.*

Key words: *socio-economic, independent education, modern outlook, social necessity, continuous education, physical education teachers, innovative and digital, educational standards, Education and training, scientific-methodical.*

KIRISH

Zamonaviy sharoitda bo‘lajak jismoniy tarbiya fani o‘qituvchilarining sport turizmiga doir bilimlarini rivojlantirish samaradorligini oshirishning zaruriy shartlaridan biri – mazkur jarayonni texnologik asosda tashkil etishdir. Ta’lim amaliyotida ta’limiy, pedagogik, tarbiyaviy, o‘qitish texnologiyalari ajratib ko‘rsatiladi.Bo‘lajak jismoniy tarbiya fani o‘qituvchilarining sport turizmiga doir bilimlarini rivojlantirishga ehtiyojni kuchaytiruvchi qator asoslar mavjud. Bu bevosita jismoniy ta’lim va tarbiya samaradorligini oshiruvchi serqirra va murakkab jarayondir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Bo‘lajak jismoniy tarbiya fani o‘qituvchilarining sport turizmiga doir bilimlarini rivojlantirishga qaratilgan pedagogik texnologiyaning tasnifiy belgilari quyidagicha belgilab olindi: qo‘llanilishi darajasi va tavsifi:lokal darajada qo‘llanilish tavsifiga ega mezotexnologiya; falsafiy asosi: 1) antropologik; 2) ontologik; 3) dialogik; myetodologik yondashuvi: insonparvar, algoritmli, amaliy yo‘naltirilgan, qadriyatga yo‘naltirilgan yondashuv; rivojlanishning yetakchiomillari: 1) sosiogen; 2) psixogen; tajribani o‘zlashtirishning ilmiy konsepsiyasi: assosasiativ-refleksiv + faoliyatli + rivojlantiruvchi bixevioristik; mazmuniga *ko‘ra:* oliy jismoniy ta’lim yo‘nalishlari uchun; ijtimoiy-pedagogik faoliyat turi*:* ta’limiy (didaktik), jismoniy, ruhiy, rivojlantiruvchi; qo‘llaniladigan metodlari*:* 1) dialogli; 2) vaziyatli; 3) bir-biriga tushuntirish; 4) bir-biriga o‘rgatish; 3) mustaqil ish; 4) o‘yin; 5) izlanishli-tadqiqotchilik; tashkiliy shakllari: 1) individual; 2) guruhli; 3) juftliklarda ishlash; 4) jamoaviy; qo‘llaniladigan vositalari: 1) manbalar; 2) jismoniy mashqlar; 3) jismoniy-ruhiy va iroda tarbiyasi; 4) motivasion ta’lim; talabaga yondashuv va tarbiyaviy o‘zaro harakat tavsifi: shaxsga yo‘naltirilgan; modernizasion yo‘nalishi va an’anaviy ta’lim tizimga munosabati:jismoniy-tarbiyaviy funksiyani kuchaytirish asosidagi pedagogik texnologiya; qo‘llanilish toifasi*:* oliy ta’lim muassasalari talabalari uchun.

Ta’lim turizmi yo‘lga qo‘yilganda o‘z-o‘zidan til o‘rgatish kurslariga,ovqatlanish shaxobchalariga,talabalarning o‘qishdan tashqari paytlarida dam olish maskanlariga borib, dam olishlariga,madaniy hordiq chiqarish (muzey, teatr, kino, konsertga borish) kabilarga talab va ehtiyoj ko‘payadi.

Demak, turizm madaniyati deganda, xalqaro universitetlar bilan hamkorlikda loyihalar olib borish, xalqaro konferensiyalar o‘tkazish, sport musobaqalarida qatnashish kadrlar almashinuvini yanada rivojlantirishga oid bilimlarga ega bo‘lish tushuniladi. O‘zbekistonda ta’lim turizmining rivojlanishi mamlakatning iqtisodiy o‘sishiga katta turtki bo‘ladi hamda uning rivojlangan mamlakatlar qatorida turishi uchun imkon yaratiladi. Xorijiy mamlakatlar bilan tezkor zamonaviy ma’lumotlar almashinuvi tizimi shakllanadi, ijtimoiy, iqtisodiy aloqalar mustahkamlanadi va eng asosiysi, insonlarning bilimdonlik va ma’naviy darajasi oshib, xalqlarni birlashtiradi.[1]

Volontyorlik turizmi esa yoshlar orasida hozirda eng rivojlanayotgan turizm turlaridan biri bo‘lib, ko‘ngilli ravishda hech qanday iqtisodiy manfaatni ko‘zda tutmagan holda, volontyorlik tashkilotlariga uyushgan holda ko‘ngillilik dasturlariga qatnashish hisoblanadi.

Madaniy almashinuv. Ushbu tur doirasida nafaqat talabalar, balki yosh san’atkorlar, sportchilar, madaniyat xodimlari o‘rtasida almashinuvni o‘z ichiga olib, xalqlar, millatlar o‘rtasidagi o‘zaro o‘xshashliklarni va farqlarni aniqlash, tanishish hamda almashinishlardan iborat.

Sport va sarguzasht turizmida yoshlar xalqaro darajadagi sport musobaqalarida qatnashish va tomosha qilish, sarguzashtli turizm turlariga qatnashish, aktiv dam olish uchun sayohat qilishadi.

Hordiq chiqarish uchun yoshlar tinch va osudalikda, asosan tabiat qo‘ynida bo‘lishni, o‘zlari yoqtirgan mashg‘ulot bilan shug‘ullanish va o‘zlari uchun yangiliklarni kashf etish uchun sayohat qilishadi. Yildan-yilga xalqaro darajada sayohat qilayotgan yoshlar soni tobora ortib borayotgan bo‘lib, ularning tashrif buyurgan mamlakatlardagi sarflari miqdori ham o‘sib bormoqda. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra 1991-yilda yoshlar turizmi umumiy turizm bozorining 15 foizini, 1995-yil 23 foizni, 2000-yilda 20 foizini, 2005-yilda esa 24 foizini va 2020-yilda esa 300 million kishiga yetishi bashorat qilinmoqda.[2:42]

NATIJALAR

Yuqoridagilarga asoslanib aytish mumkinki, yoshlar turizmining har bir turi o‘ziga xos xususiyatga ega bo‘lib, yoshlarning turizm madaniyati egasi sifatida sayohatlarini amalga oshirishda muhim rol o‘ynaydi.

Mamlakatimizda turizm madaniyatini rivojlantirishning yana bir muhim omillaridan biri bu turizm borasida yuqori sifatli ta’lim berish va mutaxassislar tayyorlashdir. Turizm sohasida ta’lim jarayonini tashkil qilish hozirda tez rivojlanayotgan yo‘nalishlardan biridir. Unda gumanitar, ijtimoiy, geografik, iqtisodiy va boshqa fanlar mujassam bo‘lganligi bois ko‘pqirrali fanlar doirasiga kiradi. Turizm sohasida ta’lim olishga katta turtki egiluvchan va turli ta’lim tizimini kiritish hisoblanadi. Mehnat bozorida katta raqobatchilikka tishi o‘tadigan turizm sohasidagi mutaxassisga talab o‘sib bormoqda. Turizm sohasi mutaxassisi zamonaviy modeli o‘z ichiga quyidagilarni oladi: psixologik komponentlar, turizmga oid yo‘nalishlar bo‘yicha fanlararo bilimlarga egalik, ularni amalda qo‘llay bilish, professional bilim va ko‘nikmalar, zamonaviy kompyuter texnologiyalari bo‘yicha ko‘nikmalar, bir necha chet tillarini bilish. Shu sababli, har yo‘nalishdan umumiy tushunchaga ega bo‘lish yetarli emas, perspektiv sohaviy ta’lim tizimini yaratishga talab ortib bormoqda. Chunki zamonaviy mutaxassislarga fanlararo bilimlar, yagona ta’lim standarti bilan bog‘liq professional ko‘nikmalar ham zarur.

Turizm sohasida ijobiy o‘zgarishlar kuzatilishi, mazkur mutaxassislarga O‘zbekistonda ham talab kuchayishiga olib keldi, bunda mutaxassislarning tayyorgarligi mazkur tarmoq talabini oshirishga olib kelishi shart. Bunday holat turizm sohasiga oid turli yo‘nalishlarda ta’lim beruvchi oliygohlar, kollejlar, litseylar yaratilishiga sabab bo‘lib, bundan maqsad ta’lim kurslari va mutaxassisliklar bo‘yicha kadrlarni tayyorlashdir.

Turistik xizmatlar sohasi mintaqada turistik biznesning rivojlanishi va turistik xizmatlar sifatiga ta’sir etuvchi majmuali turistik infratuzilmani o‘z ichiga qamrab oladi. Bunda «Qo‘shimcha turistik xizmatlar» tarmog‘i iqtisodiyotning boshqa sohalari bilan o‘zaro ta’sirini (moddiy ishlab chiqarish va xizmatlar sohasi) belgilaydi.

Boshqa sohalarning ta’siriga qaramay, turizmning samaradorligi tashkiliy-iqtisodiy sharoitlarning ta’minlanishiga bog‘liq, ular esa mintaqaviy turizm sohasini idora etishdagi davlat siyosati masalalarini yechish asosida erishilishi mumkin.

PEDAGOGIKA

O‘zbekistonda turizm madaniyatini rivojlantirish, fuqarolarda turistik ongni shakllantirish hamda soha rivojiga ijobiy ta’sir etuvchi ijtimoiy-siyosiy hamda madaniy qarashlar nuqtai nazaridan yondashuv asosida Farg‘ona viloyatining tanlangan hududlari doirasida 970 nafar respondentni jalb qilgan holda so‘rovnoma o‘tkazildi. O‘tkazilgan so‘rovnoma natijalari mamlakatimiz hududlariga tashrif buyuradigan turistlarning (ichki va xorijiy) talab va taklif munosabatlarini hisobga olgan holda quyida berilgan turistik yo‘nalish va maqsadlar asosida shakllantirilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 7-fevraldagi «Ichki turizmni jadal rivojlantirishni ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi [3]qarori mamlakatimizda mavjud turizm resurslaridan foydalanish imkoniyatini yanada oshirdi hamda turizmni xususiy sherikchilik asosida rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlashni nazarda tutadi. Mazkur qarorning yana bir o‘ziga xos tomoni shundan iboratki, endilikda har bir xo‘jalik sub’yekti qayd etilgan qaror asosida o‘z xodimlarini qiynalmasdan turistik sayohatlarga chiqarish imkoniyatiga, pirovardida esa mehnat unumdorligi oshishiga xizmat qiladigan qulay imkoniyatga ega bo‘ldi. Qaror kelajakda davlat tekshiruv organlari tomonidan korxona rahbariyatini behuda bezovta qilinishining oldini olishga xizmat qilishi tayin. Bir so‘z bilan aytganda, ijtimoiy muammoni qonuniy hal qilish hisobiga korrupsiyadan holi bo‘lish imkoniyatiga ega bo‘lindi.

Turistlarni jalb etishga bevosita ta’sir ko‘rsatadigan omil – sohaga malakali kadrlar xizmat qilishidir. Shu bois, farmonda kadrlar tayorlash, qayta tayyorlash, malakasini oshirish hamda oliy ta’limdan keyingi ta’limni takomillashtirish kerakligi aytib o‘tilgan. Shuningdek, turizmni rivojlanishi uchun katta ahamiyatga ega bo‘lgan aeroport xizmatini jadallashtirish farmonning asosiy masalasidan joy olgan.

Madaniy almashinuv doirasida turistlarga xizmat ko‘rsatadigan transport logistikasi xizmatini davr talabiga mos ravishda faollashtirish va sifatini izchil oshirib borishga e’tibor qaratilgan.

O‘zbek turizmini rivojlantirishning muhim istiqbolli yo‘nalishi bu, avvalo, kelajakda ushbu soha bo‘yicha xizmat qiladigan malakali kadrlarni tayyorlash va ular orqali xalqimiz turizm madaniyatini faol targ‘ib qilishdir. Shu bois so‘nggi yillarda bu borada bir qancha amaliy qadamlar tashlandi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 28-iyundagi 3815-sonli Qarori asosida Samarqand shaxrida «Ipak yo‘li» Xalqaro turizm universiteti tashkil etildi. 2019-2020-yil o‘quv yilida universitet talabalar uchun ziyorat turizmi, ekoturizm, raqamli turizm, mehmonxona turizmi, event menejment, turizm sohasidagi xalqaro aloqalar va huquq kabi bir qator yo‘nalishlar ochildi. [5]Hal qilinishi lozim bo‘lgan eng muhim masala, ushbu kabi yangi ochilgan yo‘nalishlarda o‘quv mashg‘ulotlarini olib boradigan malakali mutaxassis kadrlarni shakllantirishdir.

«Turizm sohasiga investisiyalarni jalb qilish, bo‘lajak kadrlar salohiyatini yuksaltirish ularda turizm madaniyatini oshirishga bo‘yicha konstruktiv chora tadbirlar amalga oshiririshimiz lozim, - deydi O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev, - Bizda turizm madaniyati ko‘pincha qadimiy shaharlarimiz, tarixiy-madaniy yodgorliklar doirasida cheklanib qolmoqda. Bugungi kunda respublikamizning takrorlanmas tabiati, qo‘riqxonalari, tog‘li mintaqlari, turizmni yanada yuksaltirish uchun katta ahamiyatga ega.

Mamlakatimizda rekreasiya turizmi, ziyorat hamda ekologik turizmni rivojlantirish iqtisodiy rivojlantirish va ijtimoiy sohalar rivojiga katta turtki beradi».[6] Mamlakatimiz rahbarining ana shunday asosli fikrlari turizmni rivojlantirishning istiqbolli rejalari ishlab chiqilishi uchun muhim omil bo‘lib xizmat qilishi mumkin, deb hisoblaymiz.

Turizm madaniyatini o‘lkamiz hududida rivojlantirishning eng muhim asoslaridan yana biri ma’rifiy asoslardir. Ayniqsa, bu borada turizm sohasining ekoturizm yo‘nalishi uchun ham zamonaviy kadrlar tayyorlash asosida turizm madaniyatini rivojlantirish borasida muhim qadamlar tashlash vaqti keldi. Respublikamiz hududida ekoturizmni shakllantirish uchun juda ko‘plab qulay hududlar mavjud. Masalan, Samarqand viloyatidagi geografik joylashuvi va tarixiy o‘tmishini hisobga olib, tashkil qilinadigan ekohududlarga quyidagi maskanlarni kiritish mumkin: ming yillik chinorlar o‘sib turgan Urgut shahridagi maskanlar, Omonqo‘ton yo‘lida joylashgan mo‘jizaviy teshik toshlar, ushbu maskanning geografik joylashuvi va undagi ekologik toza mevalarga boy hududlar shular jumlasidandir.

Gullar ekilgan sarishta-saranjom hovli-joylar millatimizning o‘zbekona urf-odatlariga boy qishloq hayoti zamonaviy ekoturizmni yo‘lga qo‘yish uchun muhim omil bo‘lib xizmat etishi jalb etuvchi, diqqatga sazovor maskanlarga aylanishi mumkin bo‘ladi. Umuman olganda, eko va agroturizmni rivojlantirish uchun respublikada lozim geografik hududlar juda ko‘p, faqatgina ularni

aniqlab olib, geografik jihatdan bilimli, ekologik tarbiya va madaniyatni tushunadigan mutaxassis kadrlarni tayyorlash va ko‘paytirish kerak bo‘ladi. Mamlakatimizda turli sohalarda mutaxassislar mavjud, ammo turizm va ekologiya sohasida mutaxassislar soni cheklangan, bunga sabab ushbu soha mutaxassislariga shu kunga qadar talabning bo‘lmaganligidir.

[7]Aytish mumkinki, eko va agroturizmni rivojlantirishda bir qadar to‘siqlar mavjud, chunki aholida va yo‘l boshlovchilarning bu sohada tajribalari yetishmaydi. «Ipak yo‘li» Xalqaro turizm universiteti Fransiyaning Parij akademiyasi, Sahid turizm instituti (Indoneziya), Sochi davlat universiteti kabi jahonning 16 ta nufuzli ta’lim maskanlari bilan xalqaro hamkorlikni rivojlantirish hamda tajribalar almashishni e’tiborga olib yuksalish maqsadga muvofiq.

Dunyoning ko‘pgina mamlakatlarida davlat byudjetiga kelib tushadigan asosiy daromad manbai turizmdir. Bizning mamlakatimiz hududidagi tarixiy yodgorliklar, obidalar, buloqlar, chinorlar, toshlardagi yozuvlar, qo‘riqxonalar, «Jayron» ekomarkazi, milliy bog‘larda ekoturizmni ilmiy asoslangan marshrutlarini tashkil qilish istiqbolli bo‘lishi mumkin.

Bugungi kunda respublikamizda eko va agroturizmni shakllantirish bo‘yicha «Yo‘l xarita»si tuzilishi birinchi marta amalga oshirilmoqda. Bu ishning boshida turli soha mutaxassislari ish boshladilar, ammo birinchi vazifa kadrlar masalasi bo‘lib qoladi. Oliy ta’lim muassasalarida lozim bo‘lgan sohalarda ekologiya va geografiya dars soatlarini yetarli darajada o‘quv rejalariga kiritish, yosh mutaxassislarda ekologik madaniyatni va chuqur geografik bilimni tarbiyalash ko‘zda tutilgan vazifalarni amalga oshirish lozim. Ekoturizmni shakllantirib «klaster»lash darajasiga olib chiqish uchun yangi texnologiyalardan foydalanib ish olib borish ijobiy natijalar beradi.

«Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» hamda «Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi» ning qabul qilinishidan ko‘zlangan asosiy maqsad ham kadrlar tayyorlash tizimining demokratik o‘zgarishlar va bozor islohotlari talablariga muvofiq emasligi, amaldagi ta’lim-tarbiya tizimining bugungi zamon talablariga javob bera olmasligi, o‘quv jarayonining moddiy-texnika va axborot bazasi yetarli emasligi, sifatli o‘quv-uslubiy va ilmiy adabiyot hamda didaktik materiallarning kamligi, ta’lim tizimi, fan va ishlab chiqarish o‘rtasida o‘zaro hamkorlik hamda o‘zaro foydali integrasiyaning yo‘qligi, o‘qituvchilarning o‘quvchilarga zamonaviy bilim berishga imkon yaratadigan zamonaviy bilim, ko‘nikma va malakalarga ega emasligi, yuqori malakali pedagog kadrlarning yetishmasligi, kadrlar tayyorlashning mavjud tizimidagi jiddiy kamchiliklarni bartaraf etishga qaratilganligi bilan izohlanadi.[8:101]

Yuqorida keltirilgan kamchiliklarni bartaraf qilishda asosiy rolni o‘qituvchi bajaradi. Demak, bu muammolarning muvaffaqiyatli hal etilishi bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy-pedagogik tayyorgarligiga bog‘liq.[9:6]

Bu borada bakalavriat yo‘nalishi talabalariga «Turizm etikasi va madaniyati» fanini o‘qitish maqsadga muvofiq. Bu fanining asosiy vazifasi jamiyat bilan tabiat o‘rtasidagi o‘ta murakkab aloqadorlikni ochib berish, talabalarda turizm, ekoturizm bo‘yicha bilim, malaka va ko‘nikma hosil qilish bo‘lib, u quyidagi vazifalarni hal qilishga qaratilishi lozim. Xususan:

– talabalarda turizm, ekoturizm, turizm etikasi, sayohat odobi bo‘yicha bilim, malaka va ko‘nikma hosil qilishning nazariy asoslarini ishlab chiqish orqali muammoning dolzarb pedagogik ahamiyatga ega ekanligini asoslash ;

– amaldagi o‘quv reja, dastur va darsliklarga turizm, ekoturizm, turizm etikasi, sayohat odobi bo‘yicha bilim, malaka va ko‘nikma hosil qilishni yetarli darajada singdirib borish;

– talabalarda turizm, ekoturizm, turizm etikasi, sayohat odobi bo‘yicha bilim, malaka va ko‘nikma hosil qilish jarayonida qo‘llaniladigan metodlar hamda yondashuvlarning mazmun-mohiyati va uni tanlash tamoyillarini pedagogik nuqtai-nazardan baholash texnologiyalarini ishlab chiqish;

– zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida talabalarda turizm, ekoturizm, turizm etikasi, sayohat odobi bo‘yicha bilim, malaka va ko‘nikma hosil qilishning interfaol usullarini aniqlash, ularni amalga oshirish metodikasini ishlab chiqish va o‘z vaqtida ta’lim jarayoniga tatbiq etish;-talabalarda turizm, ekoturizm, turizm etikasi, sayohat odobi bo‘yicha bilim, malaka va ko‘nikma hosil qilish yuzasidan amaliy-uslubiy tavsiyalar ishlab chiqish;

– talabalarda turizm, ekoturizm, turizm etikasi, sayohat odobi bo‘yicha bilim, malaka va ko‘nikma hosil qilish orqali ular ongiga vatanparvarlik, tabiatga muhabbat va uni e’zozlash g‘oyalarini singdirib borish;

– talabalarda turizm, ekoturizm, turizm etikasi, sayohat odobi bo‘yicha bilim, malaka va ko‘nikma hosil qilish muammolarining muvaffaqiyatli hal etilishi bo‘lajak yosh mutaxassislarning

egallagan sohasidan qat'iy nazar borliqni, undagi xalqlar va davlatlar yaratgan sivilizatsiya, egalik qilayotgan va muhofazalashga majbur bo'lgan tabiati haqida yetarli tasavvurlarni hosil qilishga imkon beradi.

Shu maqsadda, ta'lim-tarbiya jarayonini maqsadga muvofiq tashkil etish va bo'lajak mutaxassislarning turizm, ekoturizm, turizm etikasi, sayohat odobi bo'yicha bilim, malaka va ko'nikmasini oshirish, ularning kasbiy tayyorgarligidagi qayd etilgan muammolarni bartaraf etish uchun:

– davlat va ijtimoiy buyurtmalarni hisobga olgan holda bo'lajak mutaxassislarning turizm, ekoturizm, turizm etikasi, sayohat odobi bo'yicha bilim, malaka va ko'nikma hosil qilishga oid tadqiqotlarni olib borish, ta'lim paradigmalarini modernizasiyalash va konseptual muammolari yechimini ishlab chiqish;

– bo'lajak mutaxassislarning turizm, ekoturizm, turizm etikasi, sayohat odobi bo'yicha bilim, malaka va ko'nikma hosil qilishda aniq tasavvurlarni shakllantirish;

– kasbiy faoliyatni jamiyat va ijtimoiy taraqqiyot talablaridan kelib chiqqan holda tashkillashtirish imkonini beruvchi maxsus talablar va zaruriy kasbiy bilim, malaka va ko'nikmalarni o'zlashtirish;

– kasbiy tayyorgarlikni shakllantirishning xususiy darajasi bilan bog'liq maxsus - turizm, ekoturizm, turizm etikasi, sayohat odobi bo'yicha bilim, malaka va ko'nikma hosil qilishni o'zlashtirish;

– bo'lajak mutaxassislarning turizm, ekoturizm, turizm etikasi, sayohat odobi bo'yicha bilim, malaka va ko'nikmani rivojlantirish va takomillashtirishning asosi bo'lgan innovatsion yondashuvni qaror toptirish.

Bu jarayon o'z navbatida turizm madaniyatining ijtimoiy nufuzini oshirib, kadrlar tayyorlashning milliy modelini yaratishga xizmat qiladi. Bu vazifalarning muvafaqqiyatli hal etilishi o'z navbatida bo'lajak mutaxassislarning turizm, ekoturizm, turizm etikasi, sayohat odobi bo'yicha bilim, malaka va ko'nikma hosil qilishda muhim omil hisoblanadi.

Qayd etilgan muammolar yechimini ishlab chiqish va bu vazifalarning muvafaqqiyatli hal etilishi bo'lajak mutaxassislarning turizm, ekoturizm, turizm etikasi, sayohat odobi bo'yicha kasbiy-pedagogik shakllanganlik darajasiga bevosita bog'liq. Shuningdek, mamlakatimizda «turizm sohasida kasb-hunar ta'limi muassasalari kadrlari va bitiruvchilarining malakasini baholashni tashkil qilish; turizm sohasida xalqaro talablarga javob beradigan uzluksiz, ko'p bosqichli ta'lim tizimini yaratish, ichki va kirish turizmi sohasida bevosita turistik xizmatlarni ko'rsatuvchi turizm sohasi xodimlari (gidlar, yo'riqchi-kuzatuvchi, turizm faoliyati sub'yektlari, umumiy ovqatlanish tashkilotlari, transport va boshqalar xodimlari) uchun majburiy malaka talablarini belgilaydigan standartlar ishlab chiqish, turizm sohasi xodimlarini turistlarga axborot berish ishlari va xavfsizlik bo'yicha yo'riqnomalarni o'tkazish qoidalarga o'qitish bo'yicha tizimni ishlab chiqish va joriy qilish, ta'lim jarayoniga xorijiy mutaxassislarni jalb qilish orqali turizm sohasida kadrlar malakasini oshirish tizimini takomillashtirish, shuningdek, turizm sohasida kadrlar malakasini oshirish tizimini tashkil etish uchun, shu jumladan hududlarda ta'lim muassasalari sonini oshirish, turizm sohasida kadrlar tayyorlash uchun yetakchi xorijiy oliy o'quv yurtlari filiallarini ochish» kabilarning belgilab olingani ham bejiz emas.[9]

Axborot oqimining tezlik bilan tarqalishi, millatlar va madaniyatlararo integratsiya, qolaversa, o'quvchi shaxsining «informatsiyalashgan muhit»ga tez moslashuvi natijasida ta'lim prinsiplari hamda metodlarini tubdan qayta ko'rib chiqish butun dunyoda dolzarb masalaga aylandi. Bugungi o'quvchi shaxsi yoki yoshlarni ta'lim olishga chorlashning o'zi «san'at» darajasiga yetmoqda. Keyingi yillarda milliy pedagogikamizga turlicha yangi g'oyalar va tushunchalar kirib kelmoqda. Ayniqsa pedagogik ta'lim innovatsion klasteri qo'llanilishi ommaviylashmoqda. Aslida «klaster» tushunchasi sohada terminologik jihatdan yangi bo'lsa-da, mohiyatan sharq pedagogikasiga begona emas. Ya'ni bir maqsadga yo'naltirilgan muassasa va vositalarning hamkorligi, boshqacha qilib aytganda, birlashgan holda ko'zlangan manzilga yetib olish. Ushbu masalani o'rganish asnosida yanabir vosita samarali natija berishi aniqlandi. Bu xoh ichki, xoh tashqi bo'lsin – ta'lim turizmini rivojlantirishdir.[10:45]

Aniqroq qilib aytganda, innovatsion jarayonlar pedagogik nazariya va amaliyotni faol rivojlantirmoqdaki, ta'lim turizmi ham ana shu vositalarning biridir. Bunda zamonaviy o'qitishning barcha usullari va shakllaridan unumli foydalanish mumkin. Shu kunga qadar faol amalda bo'lgan

ta’lim shakli va texnologiyalari fundamental asosga ega. Lekin multimediya vositalariga ipsiz bog‘langan «virtual olam odam»larini faol o‘qitish uchun ham ta’lim turizmi kerak.

Xorijiy davlatlar pedagogikasi va ta’lim siyosatini o‘rganar ekanmiz, bu sohaga alohida ahamiyat qaratilayotganini kuzatish mumkin. Masalan, ta’lim turizmidan Rossiya va Yevropada faol foydalanilmoqda. Turli xil ta’lim tizimlarida keng istifoda etilmoqda va innovator pedagoglar tomonidan yuqori samarali o‘qitish texnologiyasi sifatida baholanmoqda.Ta’lim turizmi deganda – o‘rta, o‘rta maxsus va oliy ta’lim muassasalarining o‘quv dasturlarida belgilangan reja va vazifalarni bajarish maqsadida tashkil etiladigan ekskursiya turlari tushuniladi.

Pedagogik ta’lim innovatsion klasteri quyi, o‘rta va oliy ta’lim muassasasi sub’yektlarini qamrab olishini nazarda tutadigan bo‘lsak, ta’lim turizmi ham muayyan maqsadga erishish uchun maktabdan tashqari hamda o‘rta-maxsus, shuningdek universitet, aspirantura, universitetdan tashqari ta’lim turlarini birlashtiradi.

Ta’lim turizmining maqsadi ham konseptual – ilmiy, amaliy va kasbiy rivojlanish va bilim olishga bo‘lgan qiziqishni qondirish imkoniyatini paydo qiladi. Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti tomonidan viloyatda ta’lim sohasini rivojlantirish maqsadida Pedagogik ta’lim innovatsion klasteri usulidan foydalanish yo‘lga qo‘yilgan. Ushbu usuldan foydalanishda viloyatda ta’lim tizimini rivojlantirishga hissasini qo‘shuvchi ta’lim turizmini ham qo‘shish mumkin. Buning uchun viloyatda qulay geografik muhit va ilmiy salohiyatga ega oliy ta’lim muassasalaridan biridir.

Keyingi yillarda respublikamizda olib borilayotgan ijtimoiy-siyosiy, madaniy islohotlar natijasida xalqaro konferensiyalar, festivallar, xalqaro miqyosdagi ilmiy-amaliy konferensiyalar o‘tkazilish natijasida turli yoshdagi sayyoh va ishtirokchilarning mamlakatimizga qiziqishi tobora ortib bormoqda. Ta’lim turizmini rivojlantirish uchun tur agentliklar va firmalar bilan ta’lim muassasalari ham hamkorlik shartnomalari tuzishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Misol uchun, talaba yoki talabalar guruhi muayyan turistik firmaga volontyor sifatida ishga joylashishi mumkin. Biron kichik turistlar guruhiga gidlik qilish natijasida talaba yurtimiz tarixini, madaniy meros va til o‘rganish ko‘nikmalarini yanada mustahkamlaydi. Bu o‘z-o‘zidan ta’lim turizmining maqsadi hisoblanadi.

O‘zbekiston ta’lim siyosatida ta’lim turizmini rivojlantirishga e’tibor qaratish strategik ahamiyatga ega, ya’ni umumta’lim maktablari o‘quvchilari, universitet talabalarining ta’lim sifatini, ekskursiyalari asosida ta’lim turizmining asosini ishlab chiqish kerak. Masalan, muayyan oliy ta’lim muassasasi yo‘nalishidan kelib chiqib, til, axborot texnologiyalari, san’at sohasi, arxeologiya, tarixni o‘rgatishga qaratilgan dasturlari tartib qoidalari va mezonlarini ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir. Dastur rejalari asosan qishki va yozgi ta’til oralig‘ida bajarilishini ko‘zda tutsa, yanada foydali bo‘ladi.

MUHOKAMA

Ta’lim turizmi bo‘sh vaqtdan unumli foydalangan holda madaniy-ma’rifiy tadbirlarni bilim bilan birlashtiradigan turizm turlaridan biri hisoblanadi. Barcha fanlarni amaliy o‘rganish birlamchi maqsad bo‘lsa, unga erishtiruvchi vositalar bu ta’tilning ikkinchi darajali maqsadi bo‘lishi mumkin. Ta’lim turizmi safar sababi va mavzusiga qarab farq qilishi mumkin. Ekskursiya dam olish elementlari bilan ta’limni o‘z ichiga olsa, til kurslari, chet el o‘quv yurtlarida o‘qish, ko‘rgazma va muzeylarga tashrif, tarixiy qadamjolar, ishlab chiqarish korxonalariga ekskursiya, seminar va konferensiyalar sof ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Ta’lim turizmi dasturining xususiyatlari, tashkil etilishi va o‘tkazilishi bir qator omillar bilan belgilanadi. Asosiysi, sayohatlarning ta’lim maqsadi mintaqaning o‘ziga xos xususiyatlari, safarning davomiyligi, mavsumi, tur ishtirokchilarining yoshi, tajribasi, tayyorgarligi, turistik guruh va o‘quv guruhi uchun moliyaviy harajatlarning ehtimoli hamda boshqalar puxta ishlab chiqilishi kerak.

Ta’lim turizmi asosida tashrif buyuradigan hududning tabiiy, madaniy, tarixiy, hunarmandchilik resurslari asosida bu yerda ta’lim turizmining ixtisoslashtirilgan turlarini rivojlantirish istiqbollarini belgilashda muhim ahamiyatga ega. Bu kabi turizm manbalari bir qator o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Ta’lim turizmi va hududning resurs salohiyatini baholashda har bir manbaning axborot, ekologik, ijtimoiy, estetik, madaniy yoki boshqa qiymati, shuningdek ularning kombinatsiyalari alohida ahamiyatga ega. Ta’lim turistik resurslarining muhim parametrlari, albatta, sig‘im, barqarorlik, ishonchlilik va foydalanish kabi xususiyatlarni o‘z ichiga oladi.

Mamlakatimiz hududida joylashgan Buxoro, Samarqand, Termiz, Xiva va Shahrisabz kabi tarixiy obidalarga boy shaharlar qadimiy inshootlar va betakror me’moriy yechimga ega bo‘lgan binolarimiz butun dunyoga mashhur bo‘lib, dunyo xalqlari bu shaharlarimizni ko‘rib ziyorat qilishni orzu qiladilar. O‘zbekistondagi bir qancha diniy ziyoratgohlarimiz esa bevosita jahondagi

mamlakatlarning musulmon xalqlarining diqqat-e'tiborini tortib kelmoqda. Al-Buxoriy, At-Termiziy kabi viloyatlardagi diniy ziyoratgohlarimiz islom dunyosida alohida o'z o'rniga ega.

Mamlaktimizda Ziyorat turizmini tashkil etish va rivojlantirish uchun 2018-yildan boshlab dastlab Malayziya, Indoneziya va Singapur mamlakatlaridan O'zbekistondagi muqaddas qadamjolarga ziyorat turizmi yo'nalishidagi sayyohlarni jalb qilish bo'yicha ishlar faollashtirilib, vizasiz rejim joriy qilindi va qo'shimcha charter reyslar tashkil etildi.

O'zbekistonga tashrif buyuradigan xorij fuqarolarini maqsadlari bo'yicha taqsimlanadigan bo'lsa, ularning ko'rsatkichi bir-biridan katta farq qilishini ko'rishimiz mumkin. Mamlakatimizdagi turizm salohiyati inobatga olinsa, turizmning ko'plab turlarini rivojlantirish imkoniyatlari mavjudligini kuzatish mumkin.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, jismoniy ta'limda irodaviy sifatlarni rivojlantirish texnologiyasining tashkiliy-metodik komponenti bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarida refleksiv nuqtai nazarni qaror toptirishni talab etib, kompetensiyaviy yondashuv asosida irodaviy sifatlarni rivojlantirish imkoniyatini yuzaga keltiradi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1.Struktura IKT–kompetentnostiuchiteley. Rekomendasii YUNESKO. – Gamburg, 2011. URL:http://ru.iite.unesco.org/publications/3214694

2. O'zbekistonRespublikasiPrezidentiningqarori, 28.04.2020 yildagi PQ-4699-son. https://lex.uz/docs/4800657

3. Muslimov N.A. Kasb ta'limi o'qituvchisini kasbiy shakllantirishning nazariy-metodik asoslari: Ped. fan. dok. ... diss. – T., 2007. – B.130.

4. Slobadchikov V.I. Innovasionnыye obrazovaniya. // Shkolnыye texnologii. – Moskva, 2005. - №2 – S.36.

5. Urazova M.B. Sovershenstvovaniye texnologii podgotovki budущyego pedagoga professionalnogo obrazovaniya k proyektirovochnoy deyatelnosti: Diss. ... dok. ped. nauk. – T., 2015. – B.57-61.

6. Urazova M.B. Sovershenstvovaniye texnologii podgotovki budущyego pedagoga professionalnogo obrazovaniya k proyektirovochnoy deyatelnosti: Diss. ... dok. ped. nauk. – T., 2015. – B.57-61.

7. Sovet Yevropы: Simpozium po teme «Klyuchevыye kompetensii dlya Yevropы»: Dok. DECS / SC / Sec (96) 43. – Bern, 1996.

8. Strategiya modernizasii soderjaniya obщyego obrazovaniya: Materialы dlya razrabotki dokumentov po obnovleniyu obщyego obrazovaniya. – M.: OOO «Mir knigi», 2001. – 95 s.

9. Pedagogicheskiy slovar. /Pod. ryed. V.I.Zagvyazinskogo, A.F.Zakirovoy. – M.: Akademiya, 2008. – S.41.